

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODI-KICHIK JANRLARINI O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILARNI TARBIYALASH

Isaxonova Umidaxon Rasulovna

*Farg‘ona viloyati Quva tumani 61-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘zbek xalq og‘zaki ijodi-kichik janrlarini o‘qitish orqali o‘quvchilarni tarbiyalashda foydalanish yo‘llari yoritilgan bo‘lib, unda xalq og‘zaki ijodining ahamiyati bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: boshlang‘ich sinflarda o‘zbek xalq og‘zaki ijodi-kichik janrlarini o‘qitish orqali o‘quvchilarni tarbiyalashda foydalanish ahamiyatini ko‘rsatib berish.

Usul va o‘yinlar: “Ertakning nomini top”, “Ertaklardan qilingan salat”, «Videotopishmoq»....

Natija: Yosh avlodni o‘zbek xalq og‘zaki ijodining mazmun-mohiyatini anglash ruhida tarbiyalash.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, tasavvur, ertak, maqol, topishmoq, tafakkur....

Annotation: In this scientific article, the ways of using Uzbek folklore-subgenres in the education of students by teaching Uzbek folklore-subgenres in elementary grades are highlighted, and methodological recommendations are given on the importance of folklore.

The purpose of writing this article is to show the importance of using Uzbek folklore-sub-genres in the education of students by teaching them in primary grades.

Methods and games: "Find the name of the fairy tale", "Salad made of fairy tales", "Find the video"...

Result: educating the young generation in the spirit of understanding the essence of Uzbek folklore.

Key words: folklore, imagination, fairy tale, proverb, riddle, thought

Аннотация: В данной научной статье освещаются пути использования узбекских фольклорных поджанров в воспитании учащихся путем обучения узбекским фольклорным поджанрам в начальных классах, а также даются методические рекомендации о значении фольклора.

Цель написания данной статьи - показать важность использования поджанров узбекского фольклора в воспитании учащихся путем обучения их в начальных классах.

Методы и игры: «Найди название сказки», «Салат из сказок», «Найди видео»...

Результат: воспитание молодого поколения в духе понимания сути узбекского фольклора.

Ключевые слова: фольклор, воображение, сказка, пословица, загадка, размышление.

Respublikamiz ta’lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o’sib kelayotgan yosh avlod, o’quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, mantiqiy fikrlay olish qobiliyatini, aqliy rivojlanishini, o’zini-o’zi anglash salohiyatini shakllantirish va o’stirish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini tarkib toptirish, ma’naviy barkamol inson bo‘lib yetishishlari, jamiyatda o‘z munosib o‘rnini egallashga qodir bo‘lgan, komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta’limda xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘rni beqiyosdir. Hozirgi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yuqori bosqichga ko‘tarishni talab etadi. Barchamizga ayonki, bolalar tasavvurini, fantaziyasini o’stirishda xalq og‘zaki ijodi namunalari alohida o‘rin tutadi. Jumladan, har bir bola yoshligidan ertak eshitib, dunyonи anglaydi. Har bir aytildigan ertak bolalarda yangicha taassurot qoldiradi. Bolalar ertak qahramonlariga o‘xhashga harakat qiladilar, sehrli narsalarga ega bo‘lishni istaydilar yoki o‘zlari sehrgarga aylanib qolishni va qahramon singari behisob kuch-qudratga qodir bo‘lishni orzu qiladilar. Ertaklar yordamida yaxshilik va yomonlik sahrolarida, adir-u tog‘liklarida sayohat qiladilar. Ana shu davrdan boshlab nima yaxshi-yu nima yomon ekanligini

anglay boshlaydilar. Bolalar ulg‘aygan sari o‘zlaridan kichiklarga ertak aytib berishga, ularni aqlli, vazmin bo‘lishga, o‘jar, injiq qiliqlarini tashlashga undaydilar. Ular ham o‘zlarini kichik tarbiyachilar sifatida tutadilar. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda xalq og‘zaki badiiy ijodi katta-yu kichik, yosh-u qari uchun birdek donishmandlik majmuasi hisoblanadi. Asrlar o‘tsa-da, buyuk allomalarimiz asarlarida ta’lim-tarbiya masalalari badiiy ifodalansa-da, xalq tafakkurining mahsuli bo‘lgan folklor asarlari ma’naviy jihatdan olamshumul ahamiyat kasb etishda davom etaveradi. O‘zbekning butun fazilati, falsafasi, donoligi, dunyoqarashi, oliy himmatliligi, turli hayotiy vaziyatlarga munosabati maqollarda aks etgan. Insondagi mehnatga muhabbat, ishq tuyg‘ulari qo‘sqliarda eng go‘zal ichki kechinmalar sifatida ifodalangan. Ertaklarda xalqimizning eng oliy orzu -havaslari namoyon bo‘ladi. Ular bilan tanishgan yosh avlod o‘zbek uchun vatan, xalq, oila, mehnat, ilm, g‘urur naqadar muqaddas tushunchalar ekanini anglab yetadi. Boshlang‘ich ta’lim bola aqliy tarbiyasini kuchaytiradigan, tarbiyaning boshqa yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liqlikda olib boriladigan, bilim va dunyoqarashning ko‘lamini kengaytiradigan, eng asosiysi, yuqori sinflarda muvaffaqiyatli ta’lim olishini ta’minlaydigan bosqichdir. Shu tufayli boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan barcha fanlar, ularning bo‘limlari, har bir mavzu va tushunchalar alohida e’tibor bilan tanlanadi. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchining bilim saviyasi va darajasiga mos holda aqlining o‘sib borishini ta’minlaydigan, kundalik turmush amaliyotida foydalanadigan, hayotda sodir bo‘lgan voqeя va hodisalarning mohiyatini anglatuvchi materiallar o‘tiladi. Buning uchun har bir fanning mazxmuniga kirgan mavzular mutaxssis va olimlar tomonidan alohida tanlanadi. Mana shu jarayonda yuqorida aytganimizdek, xalq og‘zaki ijodi namunalari ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllanishi maktabning, oila va jamoatchilikning ta’siri ostida amalga oshib boradi. Har bir bolaning qobiliyati va iste’dodini o‘z vaqtida payqash, tarbiyalash, ro‘yobga chiqarish nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning burchi sanalar ekan bunda har bir bir pedagog mas’ul shaxs sifatida alohida o‘rinda turadi. Buning uchun esa pedagog o‘zi ustida faol, izlanuvchan, talabchan, ijodkor, muhimi bilimdon mutaxassis, xalq og‘zaki ijodi

namunalarini mukammal biladigan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, interfaol usullardan foydalanish ham yaxshi samara beradi.

**“ERTAKNING NOMINI TOPING” O‘YINI.
BUNDA O‘QUVCHILARGA ERTAK RASMLARI
KO‘RSATILADI VA ULARGA JAVOB TOPILADI.**



“Ertaklardan qilingan salat” metodi. Ertaklardan qilingan salat har xil ertaklarning syujetlarini va bosh qahramonlarini birga qo‘shishini ko‘zda tutadi va shu asosda yangi hikoya paydo bo‘ladi. Misol: Qizil Qalpoqcha o‘rmonda Mittivoyni uchratadi (shu joydan boshlab ularning sarguzashtlari o‘ralashib ketadi va yangi oqimga intiladi – syujetlarni qo‘shish).

“Videotopishmoq” metodi. Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta’lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida ta’lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Xalq og‘zaki ijodida yosh avlodni vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo’ytik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor beriladi. Topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining bolalarni o‘ylashga, topqirlikka o‘rgatuvchi qadimiy janrlardan biridir. Xalq og‘zaki ijodini o‘rgatish ham pedagogik tajriba amaliy faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi. Uning mazmuni pedagogik bilim, malaka va ko‘nikma, shaxsning shakllanishi bilan belgilanadi. Boshlang‘ich ta’limda ilg‘or pedagogik tajribalarni aniqlashda ma’lum mezonlarga asoslanish kerak. Bunda eng muhim mezon-o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatida qo‘llaydigan ta’lim-tarbiyaning ilg‘or shakl va usullaridir. Bu uni oddiy o‘qituvchidan ajratadigan muhim belgi hisoblanadi.

O'zbek xalqida bir maqol bor

Hon quvsə, o'rga
qoch,
.... Quvsə g'orga qoch

Hon o'rga, ya'ni tepalikka yaxshi
o'rمالай olmas, shuning uchun
maqolning ikkinchi qatoridagi hayvon
uncha-munchaga quvlamaydi, ammo
bir quvish qilsa, jahl otiga minsat
undan qochish amri maholdi.

**Savol: Ikkinchi qatordagi hayvon nomi
nima?**

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy tarbiya berish kuchaytirilgan hozirgi paytda, ta'lif va tarbiyaning mazmuniga o'zgartirishlar kiritilayotgan sharoitda bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalari ijobiy natija berishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent, “O'qituvchi”, 1990-yil, 46-bet.
2. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent, 2003-yil.
- 3.I.Zokirov, I.Mannopova “Metodikani tashkil etish asoslari”.
- 4.M.Quronov “Bolam baxtli bo'lsin desangiz...”